

TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2020-yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot)

2020-yil yanvar-mart oylarida, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 92537,2 ming AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,8 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, eksport hajmi 25185,3 ming AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil qildi. Import hajmi 67351,9 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'sish sur'ati 82,4 % ni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosi minus 42166,5 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh dollari)



● 2019-yil yanvar-mart ● 2020-yil yanvar-mart


Viloyatning tashqi savdo aylanmasi Eksport va import (ming AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning tashqi savdo salohiyati oshib bormoqda.

Viloyatimizning tashqi savdo aylanmasi 2020-yil yanvar-mart oylarida 92537,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport aylanmasi 25185,3 ming AQSH dollar, import aylanmasi 67351,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibi (*MDH va boshqa xorijiy davlatlar hajmi va ulushi, ming AQSH dollarida*)




Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,5 % ni taskil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatdagi tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,7 % ni taskil etdi.

Eksport va import tarkibi

(MDH va boshqa xorijiy davlatlar ulushi, foizda)




2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda MDH davlatlarining eksportdagagi ulushi 48,2 % ni, importdagagi ulushi 19 % ni tashkil qildi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz eksportidagi ulushi 51,8 % ni, importidagi ulushi 81 % ni tashkil qildi.


Eksport va import tarkibi

(*MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo'yicha hajmi, ming AQSH dollarda*)

Eksport




Import



2020-yil yanvar-mart oylarida eksportda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,5 % ni, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 114,7 % ga oshgan.

Importda MDH davlatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,0 % ni, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 84,1 % ni tashkil etdi.


MDH davlatlarga qilingan eksport hajmining davlatlar kesimida ulushi (foizda)



Viloyatimizdan 2020-yil yanvar-mart oylarida eng ko'p eksport hajmi MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga (7259,8 ming AQSH dollar) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam miqdordagi eksport hajmi Ozarbayjon Respublikasiga (12,4 ming AQSH dollar) amalga oshirilgan.


**MDH davlatlardan qilingan import hajmining davlatlar kesimida ulushi
(foizda)**



Viloyatimizga 2020-yil yanvar-mart oyida MDH davlatlari ichidan eng yuqori import hajmi Rossiya Federatsiyasidan (11197,4 ming AQSH dollarlari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Qirg'iz Respublikasidan (6,5 ming AQSH dollarlari) amalga oshirilgan.


Eksportda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



Viloyatimizdan 2020-yil yanvar-mart oyida eng ko'p eksport hajmi Turkiya Respublikasiga (6927,0 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam eksport hajmi Amerika Qo'shma Shtatlariga (1,3 ming AQSH dollari) to'g'ri kelmoqda.


Importda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



Viloyatimizga 2020-yil yanvar-mart oylarida eng ko‘p import hajmi boshqa xorijiy davlatlar tarkibidan Xitoy Xalq Respublikasidan (30622,7 ming AQSH dollarri) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Belarus Respublikasidan (0,1 ming AQSH dollarri) amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin.

Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollarda)




2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda eng ko'p tashqi savdo aylanmasiga ega hudud Jizzax shahri (32617,0 ming AQSH dollari) hisoblanadi va bu hududda tashqi savdo hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, eng kam tashqi savdo aylanmasiga ega bo'lgan hudud Yangiobod tumani (336,4 ming AQSH dollari) hisoblanadi.


Eksport

(ming AQSH dollarida)



Import


(ming AQSH dollarida)



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat jami eksport hajmida eng kam ulush Zafarobod tumaniga (132,5 ming AQSH dollari), eng katta ulush Jizzax shahriga (11151,9 ming AQSH dollari) to'g'ri keldi.


Viloyatda jami import hajmida eng kam ulush Yangiobod tumaniga (84,1 ming AQSH dollari), eng katta ulush Jizzax shahriga (21465,1 ming AQSH dollari) to'g'ri keldi.

Eksport qiluvchi korxonalar soni (Birlikda)



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha eksport qiluvchi korxonalar soni birgina Arnasoy, Zafarobod, G'allaorol, Zarbdor, Forish, Yangiobod tumanlarida kamayganligini, qolgan barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich ortganligini ko'rish mumkin.

**Import qiluvchi korxonalar soni
(birlikda)**



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha import qiluvchi korxonalar soni deyarli barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan kamayganligini kuzatish mumkin.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi viloyatimizning tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashi uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel: + 99872 221-51-26